

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-iyun

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4998,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 111,4 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyun oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 923,1 mlrd. so'mga oshdi.

Farg'ona viloyatida hizmat ko'rsatish faoliyati, 2019 yil yanvar-iyun




2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Xizmatlar - jami	4998,6	111,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	301,6	112,7
moliyaviy xizmatlar	698,3	166,6
transport xizmatlari	1078,1	103,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1000,3	101,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	125,5	101,3
savdo xizmatlari	1623,5	106,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	158,7	103,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	173,5	108,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	97,9	103,0
ijara xizmatlari	140,8	101,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	155,1	102,2
shaxsiy xizmatlar	271,3	103,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	46,2	109,3
boshqa xizmatlar	128,1	96,6


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (166,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (109,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (108,5 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so‘m



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 1623,5 mlrd. so‘m, transport xizmatlarida 1078,1 mlrd. so‘m, moliyaviy xizmatlarda 698,3 mlrd. so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 301,6 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

2019 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,5 %), transport xizmatlari (21,6 %), moliyaviy xizmatlar (14,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,0 %), shaxsiy xizmatlar (5,4 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,5 %), tashkil etadi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 125,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 12,6 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 112,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, foizda



2019 yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi Fargʻona viloyatida 1078,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1000,3 mlrd. soʻmni, jami transport xizmatlarining 92,8 % tashkil etadi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻrsatilgan bozor xizmatlarining oʻsish surati, %




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha oʻtgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori oʻsish suratlari moliyaviy xizmatlar (166,6 %), aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar (112,7%), meʼmorchilik sohasidagi xizmatlar (109,3 %), hamda taʼlim sohasidagi xizmatlar (108,5 %) hissasiga toʻgʻri keladi.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Farg'ona viloyati	4998,6	111,4
Farg'ona sh.	2312,1	116,8
Qo'qon sh.	636,6	109,5
Quvasoy sh.	76,5	103,2
Marg'ilon sh.	497,6	104,4
Oltiariq t.	140,6	113,4
Qo'shtepa t.	77,3	107,2
Bag'dod t.	104,3	107,8
Buvayda t.	96,9	103,2
Beshariq t.	103,0	102,4
Quva t.	122,3	111,5
Uchko'prik t.	135,9	102,1
Rishton t.	91,8	103,3
So'x t.	41,4	101,9
Toshloq t.	107,0	115,2
O'zbekiston t.	105,2	102,1
Farg'ona t.	141,3	113,0
Dang'ara t.	100,0	110,4
Furqat t.	47,9	103,3
Yozyovon t.	61,0	104,6

2019 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari Farg'ona (116,8 %), Qo'qon shaharlarida (109,5 %) hamda Toshloq (115,2 %), Oltiariq (113,4 %), Farg'ona (113,0 %) va Quva (111,5 %), qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan %)



2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (46,3 %), Qo'qon (12,7 %) va Marg'ilon (10,0 %), shaharlarida hamda Farg'ona (2,8 %), Oltiariq tumanlarida (2,8 %) qayd etildi.


**2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar, ming so'm**

	aholi jon boshiga, ming so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Farg'ona viloyati	1 352,0	109,4
Farg'ona sh.	8 112,5	114,6
Qo'qon sh.	2 550,5	108,0
Quvasoy sh.	831,1	101,6
Marg'ilon sh.	2 144,7	103,0
Oltiariq t.	678,1	111,5
Qo'shtepa t.	414,5	105,1
Bag'dod t.	495,1	105,6
Buvayda t.	434,2	101,4
Beshariq t.	459,9	100,6
Quva t.	482,6	109,6
Uchko'prik t.	606,8	100,1
Rishton t.	463,1	101,5
So'x t.	542,0	100,1
Toshloq t.	540,5	113,0
O'zbekiston t.	449,6	100,3
Farg'ona t.	676,2	111,2
Dang'ara t.	588,5	108,5
Furqat t.	413,6	101,8
Yozyovon t.	563,1	102,6

2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1352,0 ming. so'mga teng bo'ldi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona (8112,5 ming so'm), Qo'qon (2550,5 ming so'm) va Marq'ilon shaharlarida (2144,7 ming so'm), hamda eng kam ko'rsatkich Furqat (413,6 ming so'm) va Qo'shtepa tumanlarida (414,5 ming so'm) qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish surati, %



O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish surati Farg'ona shahrida (114,6 %), Toshloq (113,0 %), Oltiariq (111,5 %), Farg'ona (111,2 %), Quva (109,6 %) va Dang'ara tumanlarida (108,5 %) hamda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng kam o'sish surati O'zbekiston (100,3 %), So'x va Uchko'prik tumanlarida (100,1 %) kuzatildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida jami xizmatlar xajmida kichik biznes ulushi, %



2019 yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jami xizmatlar xajmida eng yuqori ulush Qo'shtepa (99,8 %), Furqat (99,2 %), Buvayda (98,9 %) va Yozyovon (98,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Farg'ona viloyati
statistika boshqarmasi
Xizmatlari sohasi statistikasi bo'limi
Mas'ul: A.Sattorov
Tel.: (71) 230-87-28